

**KUZGI BUG‘DOY XOSILDORLIGINING SHO‘RALARNI (S’HENUPODIUM)
GERBITSIDLAR VOSITASIDA BARTARAF ETISHGA BOG‘LIQLIGI**

Xoliqov Z.B. , Utaeva G.N.
Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10428042>

Annotatsiya: O‘zbekistonning janubiy mintaqalari sharoitida g‘allachilikni yanada rivojlantirishning ustivor muammolaridan biri kuzgi bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarni samarali bartaraf etishda Atlantis gerbitsidining 300 g/ga me’yorida qo‘llanilishi yuqori samarali tadbir bo‘lib, don xosildorligining 24 s/ga gacha oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so‘zlar: Kuzgi bug‘doy, Gerbitsid, Granstar, Atlantis, hosildorlik, begona o‘tlar, sho‘ralar.

Hozirgi vaqtda jahon bo‘yicha bug‘doy xosildorligi 31.1 s/ga dan oshmayapti. Bunday salbiy xolatga ko‘p jihatdan bug‘doy dalalarida begona o‘tlarlarning keng tarqalishi sabab bo‘lmoqda. Chunki kuzgi bug‘doy yoppasiga tor qatorlab ekilishi sababli orasida begona o‘tlar erkin tarqalib ulkan zarar etkazadi. Shu sababli ham kuzgi bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashishning zamonaviy yo‘llarini ishlab chiqish xozirgi davr aktual muaommolaridan hisoblanadi.

Shu sababli ham begona o‘tlarni tarqalishi va ularga qarshi kurashish usullari buyicha talaygina ilmiy –tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.[1,2] Ayniqsa begona o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini dunyoning turli mintaqalarida uchratamiz. [4,5,9] Shu jumladan kuzgi yumshoq bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘proq e’tiborga sazovor. [3,6,7,8] F.Ya.Xasanova va boshqalar tomonidan boshoqli don ekinlari dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus tavsiyanoma ishlab chiqilgan. [10]

USLUBIY QISM

O‘zbekistonning janubiy mintaqasidagi sharoitda kuzgi sug‘orish dalalaridagi sho‘ralarga qarshi kurashish bo‘yicha 2015-2017 yillarda ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. [10]

Sho‘ralar urug‘lar har yili kuzgi bug‘doy ekin bilan birga oktyabr oyi o‘rtasida ekiladi. Tadqiqotlar o‘tkazish uchun sho‘ralarning oq sho‘ra (S’henupodium album) Sassiq sho‘ra (S’henupodium vulveria) Qizg‘ish sho‘ra(S’henupodium rubrum) va xushbo‘y sho‘ra (S’henupodium botrys) kabi turlari teng aralashtirilib tajribaning nazorat variantiga ekildi.

Tadqiqotlar uchun gerbitsidlarning Granstar(20g/ga) va Atlantis (300g/ga) turlaridan foydalanib tavsiya etilgan me’yorlarda 15 mart 1aprel va 15 aprel sanalarida 300 litr/ga eritmasi qullanildi.

Tajribaning birinchi nazorat variantiga sho‘ralar urug‘lari ekilmadi va gerbitsidlар ham qullanilmadi. Ikkinchi nazorat variantiga sho‘ralar urug‘lari ekilib, gerbitsidlар

qullanilmadi.Tajriba variantlariga esa granstar (20 g/ga) va atlantis (300 g/ga) gerbitsidlar eritmalari qo'l apparati vositasida qo'llaniladi.[10]

EKSPREMENTAL QISM

Tadqiqotlarda xosildorlik bo'yicha olingan ma'lumotlar jadvalda keltirilgan.

Kuzgi bug'doyning "G'ozg'on" navi xosildorligi qo'llanilgan gerbitsidlar turlari va qo'llash muddatlariga mutanosib holda o'zgarib borishligi kuzatildi.

Kuzgi bug'doy sho'ralari ekilmasdan va begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llanilmagan birinchi nazorat varianti don xosildorligi 57,1-58,8 s/ga tashkil etgan holda, gerbitsidlar begona o'tlarga qo'llanilmadan sho'ralar ta'sirida etishtirilganda (ikkinchi nazorat varianti) Don xosildorligining keskin pasayib ketishligi kuzatilib 43,3 s/ga don 45,3% s/ga gacha ya'ni birinchi nazorat variantidagiga nisbatan 13,3-15,4 s/ga gacha pasayib ketishligi aniqlandi.

Bunday holat kuzgi bug'doy dalalaridagi begona o'tlarni gerbitsidlar vositasida bartaraf etishni taqozo etadi.

Jadval

**Kuzgi bug'doy xosildorligining sho'ralarni (S'henupodium)
gerbitsidlar vositasida bartaraf etishga bog'liqligi
(2015-2017 yillarda kuzatishlar)**

№	Ko'rsatkichlar Tajriba variantlari	Hosildorlik, s/ga			Nazoratlarga nisbatan farqlar s/ga		
		2015 yil	2016 yil	2017 yil	O'rtacha	1-nazoratga nisbatan + -	2-nazoratga nisbatan + -
Gerbitsidlar 15 martda qo'llanilganda							
1	Sho'ralar ekilmaganda Gerbitsidsiz (St)	56,4	57,8	57,1	57,1	0	0
2	Sho'ralar ekilganda Gerbitsidsiz (St)	42,8	43,4	43,7	43,3	-13,8	0
3	Sho'ralar ekilganda gransta, 20 g/ga	63.9	65.4	64.8	64.7	+7.6	+21.4
4	Sho'ralar ekilganda Atlantis, 300 g/ga	64.8	66.1	65.4	65.4	+8.3	+22.1
Gerbitsidlar 1 aprelda qo'llanilganda							
1	Sho'ralar ekilmaganda Gerbitsidsiz (St)	59,5	57,8	59,1	58,8	0	0

2	Sho‘ralar ekilganda Gerbitsidsiz (St)	44,9	45,2	46,4	45,5	-13,3	0
3	Sho‘ralar ekilganda gransta, 20 g/ga	67,9	69,5	69,0	68,8	+10,0	+23,3
4	Sho‘ralar ekilganda Atlanchis,300 g/ga	68,9	70,1	68,0	69,5	+10,7	+24,0
Gerbitsidlar 15 aprelda qo‘llanilganda							
1	Sho‘ralar ekilmaganda Gerbitsidsiz (St)	56,7	57,9	58,5	57,7	0	0
2	Sho‘ralar ekilganda Gerbitsidsiz (St)	41,9	43,2	41,8	42,3	-15,4	0
3	Sho‘ralar ekilganda gransta, 20 g/ga	61,9	63,3	62,3	625	+4,8	+20,2
4	Sho‘ralar ekilganda Atlanchis,300 g/ga	65,9	66,5	65,9	66,1	+8,4	+23,8

Shu sababli ham kuzgi bug‘doy dalalarida sho‘ralarga qarshi granstar gerbitsidi 20 g/ga qo‘llaniladi. 15 mart sanasida qo‘llanilganda olingan qo‘sishimcha don xosildorligi granstar tarkibida qo‘llanilgan nazorat variantidagiga nisbatan 21,4 s/ga yuqori bo‘lishligi aniqlandi.

Xuddi shu muddatda (15 mart) sho‘ralar va boshqa begona o‘tlarga qarshi Atlantis gerbitsidi 300 g/ga miyorida qo‘llanilgandagi qo‘sishimcha don xosildorligi yanada oshib 22,1s/ga tashkil etishligi kuzatildi.

Atlantis gerbitsidi bir va ikki pallali begona o‘tlarni kuzgi bug‘doy dalasida bartaraf etish sababli granstar gerbitsidiga nisbatan ustunligi kuzatildi , chunki granstar gerbitsidi faqat ikki pallali begona o‘tlarni bartaraf etadi.

Kuzgi bo‘g‘doy dalalaridagi sho‘ralar va boshqa bir va ikki pallali begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlar 1 aprel va 15 aprel sanalarida qo‘llanilganida ushbu gerbitsidlarning 1 aprelda qo‘llanilshining ustivorligi ma’lum bo‘ldi. Chunki granstar gerbesidiga 1 apreldan qo‘llanilgandagi qo‘sishimcha don xosildorligi 23,3 s/ga tashkil etib, 15 aprelda qo‘llanilganda 20,2 s/ga yoki 3,1 s/ga past bo‘lishligi kuzatildi. Atlantis gerbesidining ham 1 aprel sanasida qo‘llanilishi ustivorligi ma’lum bo‘lib, 1 aprelda qo‘llanilganda 24,0 s/ga

qo'shimcha don xosili olinib 15 aprelda qo'llanilgandagi qo'shimcha don xosili 23,8 s/ga tashkil etgani xolda 6,2 s/gacha pasayishligi ma'lum bo'ldi.

Biroq barcha holatlarda ham Atlantis gerbitsining kuzgi bug'doy dalasidagi shuralar va boshqa bir va ikki pallali begona o'tlarga qarshi qo'llanilishining samaradorligi yuqori bo'lishligini ko'rsatdi.

Masalan: Gerbitsidlar aprelda qo'llanilganda granstar Gerbitsidi olingan qo'shimcha don hosilini 23,3 s/ga tashkil etib, Atlantis gerbitsidi vositasida 24,0 s/ga yoki 0,7 s/ga yuqori bo'lishligini ko'rsatadi. Xuddi shunday qolgan gerbitsidlar 15 aprelda qo'llanilganda ham takrorlanib granstar qo'llanilganida nisbatan 3,6s/ga yuqori bo'lishligini ko'rsatadi.

Demak, O'zbekistonning janubiy mintaqalari sho'ralar, bir va ikki begona o'tlarni kuzgi bug'doy dalalarida bartaraf etishning ustivor tadbirlaridan biri ekologik sof va samarali Gerbitsidlar foydalanishdan iborat bo'lmog'i kerak.

XULOSA

O'zbekistonning janubiy mintaqalari sharoitida g'allachilikni yanada rivojlantirishning ustivor muammolaridan biri kuzgi bug'doy dalalaridagi begona o'tlarni bartaraf etishligidan iborat bo'lib bir va ikki pallali begona o'tlarni kuzgi bug'doy dalalarida samarali bartaraf etishda Atlantis gerbitsining 300 g/ga me'yorini aprel oyi boshida qo'llanilishi yuqori samarali tadbir bo'lib don hosildorligini 24 g/gacha oshirish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Алиев А.П. Эффективность комплексного использования навоза и гербитсида//Ж.Земледелие.2003. №2 20 с.
2. Бадзыров Г.И. Борба с сорняками в современных системах земледелие.//Ж. Земледелие. №2. 316 с.
3. Баранова Т.А., Юнин В.Н. Из опыта применения гербитсидов на озимой пшеницсе//Ж.Защита и карантин растений.2003. №3. 21-22 с.
4. Бахромов Б., Жумабоев З. Бегона ўт хосил кушандаси // Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2003.№2..35-36 б.
5. Захаренко В.А., Захаренко А.В. Борба с сорняками //Ж.Защита и карантин растений.2004.№4. 3с.
6. Иброгимов З.А. Борба с сорными растениями при технологии возделывания двух урожаев зерна в год: Автореф. дисс. канд. с/х наук. Самарканд: СамСХИ.1999.21с.
7. Maxmudxujaev N.P. va boshqalar boshqoli don ekinlari kasalliklari .zararkunandalari va begona o'tlarga kurashish.T. 2000.22- 29s.
8. Mo'minov K.P., Rizaev Sh.X. Granstar-75 % gerbitsidi kuzgi bug'doyzorlarda begona o'tlarga qarshi qo'llanilsa // J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2002.№1. B.98-99.
9. Сергеева И.В. и другие. Агроэкологические аспекты использования гербитсидов в посевах о: пшеницы Аграрный научный журнал 2016. №1.27-32c.

10. Xasanova F.Ya. va boshqalar. Boshoqlari don ekinlari maydonlaridan gerbitsidlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent 2010. B.99-98.